

“IFRS” HOMLI
KONFERENCIYA

CONFERENCE “GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS”

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL
ECONOMIC
TRENDS



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

1 йўналиш: ГЛОБАЛ
ИҚТИСОДИЁТНИ
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА
ИСТИҚБОЛЛИ ЙўНАЛИШЛАРИ
“Глобал ва миллий
иқтисодий трендлари”

CONFERENCE

19-20
OCTOBER

ФОРУМ

PARALLEL CONFERENCES
“NEW2AN, ICFNDS
AND ICDSIS”

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL
ECONOMIC
TRENDS

“NEW2AN, ICFNDS AND ICDSIS”

CONFERENCE
“IFRS”

GLOBAL
ECONOMIC
TRENDS

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:

“IFRS”

2nd FORUM
DEVELOPMENT

RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI

2023

ELEKTRON ILMIY JURNALI / MAXSUS SON

- Innovation in
education

ФОРУМ

19-20 OCTOBER

PARALLEL CONFERENCES

“NEW2AN, ICFNDS

AND ICDSIS”

РАҚАМЛИ ИҚТИСО
АХБОРОТ ТЕХНОЛ
ВА ТАЪЛИМНИНГ
ИСТИҚБОЛЛИ ЙўН
“NEW2AN, ICFNDS,
номли параллель
конференциялар

- Macroeconomic Stability
- Social Welfare
- Human Capital
- Decent Employment
- World Economy
- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agriculture



РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ
DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Электрон илмий журнал | Electronic scientific journal

МУАССИС | FOUNDER

Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Tashkent State University of Economics

ТАҲРИР КЕНГАШИ РАИСИ | CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD

Шарипов Конгратбой Аvezимбетович — т.ф.д., профессор
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich — doctor of technical sciences, professor

БОШ МУҲАРРИР | EDITOR-IN-CHIEF

Абдуллаев Мунис Курбонович – и.ф.ф.д. (PhD), доцент
Abdullayev Munis Kurbonovich – PhD, docent

БОШ МУҲАРРИР ЎРИНБОСАРИ | DEPUTY CHIEF EDITOR

Вафоев Бобуржон Расулович – и.ф.н., доцент
Vafoev Boburjon Rasulovich – PhD, docent

МАСЪУЛ КОТИБ | EXECUTIVE SECRETARY

Л.А. Аблазов | L.A. Ablazov

ВЕБ-АДМИНИСТРАТОР | WEBMASTERS:

Н.Я. Нурсаидов, А.Ш. Махмудов | N.Ya. Nursaidov, A.Sh. Makhmudov

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ | EDITORIAL BOARD

С.С. Гулямов – и.ф.д., академик.
Б.А. Бегалов – и.ф.д., профессор.
М.П. Эшов – и.ф.д., профессор.
О.Қ. Абдурахмонов – и.ф.д., доцент.
К.Б. Ахмеджанов – и.ф.д., профессор.
И.М. Алимардонов – и.ф.д., доцент.
Р. Салиходжаев – и.ф.б.ф.д. (PhD).
Проф. Холназар Амонов (Чехия).
Проф. Карина Татек Банетти (Чехия).
Проф. О. Абдураззаков (Германия).
Проф. Эко Шри Маргианти (Индонезия).
Проф. Д.М. Назаров (Россия).
Проф. Н.М. Сурнина (Россия).
Проф. Марк Розенбаум (АҚШ).
PhD. Абдул-Рашид (Афғонистон).
PhD. Аҳмед Моҳамед Азиз Исмоил (Миср).

PhD. Беҳзод Саидов (АҚШ).
PhD. Умид Ахмедов (Дания Қироллиги).
А.А. Исмаилов – и.ф.д., профессор.
И.Е. Жуковская – и.ф.д., профессор.
Т.С. Қўчқоров – и.ф.д., профессор.
Р.А. Дадабаева – и.ф.н., доцент.
Ш.И. Хашимходжаев – и.ф.н., доцент.
А.А. Абидов – т.ф.н., доцент.
И.М. Абдуллаева – и.ф.н., доцент.
Н.Б. Абдусаломова – и.ф.д., доцент.
Ш.С. Эгамбердиев – и.ф.б.ф.д. (PhD).
Р.Х. Алимов – и.ф.д., профессор.
А.У. Қобилов – и.ф.н., доцент.
Р.Х. Насимов – т.ф.б.ф.д. (PhD).
С.С. Қулматова – и.ф.б.ф.д. (PhD).

МУНДАРИЖА:

Шарипов К.А., Ишназаров А.И.	ИҚТИСОДИЙ ЎСИШГА ИНВЕСТИЦИЯ ОҚИМЛАРИ ТАЪСИРИНИ ЭКОНОМЕТРИК ТАДҚИҚ ҚИЛИШ	6
Eshov M.P., Nasirkhodjaeva D.S.	IMPACT OF THE DEVELOPMENT DIGITAL ECONOMY ON THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE COUNTRY	14
Abdurahmanova G.Q., Mirzaliyev S.M.	OLIV TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	25
Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т.	ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	28
Abdullayev M.K., Qulmatova S.S.	LOYIHALASH JARAYONLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA DIZAYN MUAMMOLARI	34
Абидов А.А.	ДИАГНОСТИРОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ В УСЛОВИЯХ ВОЗМУЩАЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ СРЕДЫ	40
Юлдашев А.А.	ЛОГИСТИКА СОҲАСИДА БЛОКЧЕЙН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ САМАРАДОРЛИГИ	47
Yakubova Sh.Sh.	DIGITAL DEVELOPMENT AND THE NATURE OF DIGITAL ASSETS	56
Ergashodjayeva Sh.Dj.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XARIDORLAR MA'LUMOTLARI MAXFIYLIGINI TA'MINLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	64
Xashimxodjayev Sh.I., Zhukovskaya I.E.	DIGITAL TECHNOLOGIES ARE A STRONG BASIS FOR THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE COUNTRY	72
Амридинова Д.Т., Курбанова С.А.	ЦИФРОВАЯ ЭКАНОМИКА И ОНЛАЙН ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	79
Fayziyeva Kh., Tursunov Kh., Khidirova M., Kulmanov T., Zikriyoev A.	GROWING UP IN A CONNECTED WORLD: INTERNET USAGE DYNAMIC IS DIGITAL AGE OR HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT?	88
Fayziyeva M.X.	TIJORAT BANKLARI TAKLIF ETGAN RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI BAHOLASH	104
Qobilov A.O', Abdulaxatov M.M., Rajabov Sh.B., Zokirov S.Z.	ASSOTSIATIV QOIDALAR VA BOZOR SAVATLARINING TAHLILI . .	115
Ризакулов Ш.Ш.	БЛОКЧЕЙН ТЕХНОЛОГИИ В ЭКОНОМИКЕ: НА ПРИМЕРЕ ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВО	121
Назарова Р.Р., Нигматуллаева Г.Н.	СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА	126
Meyliev O.R., Gofurova K.X.	THE ROLE OF ELECTRONIC COMMERCE IN THE DIGITAL ECONOMY	132

Ma'murov B.X.	RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA HUDUDLAR IQTISODIYOTI TARKIBIY TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOHIYATI VA UNING OMILLARI	142
Гаипов Ж.Б.	ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ПЛАТЕЖНЫХ СИСТЕМ НА ПРИБЫЛЬНОСТЬ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	150
Maxmudov S.B.	MILLIY IQTISODIYOTDA EKSPORT AMALIYOTIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK TAHLILINI BAHOLASH ...	160
Nursaidov N.Y., Vafoev B.R.	PROBLEM OF LIMITED ACCESS TO THE INTERNET IN MOBILE LEARNING	172
Хидирова Б.И.	РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР	179
Xalilova N.K.	O'ZBEKISTON SHAROITIDA XARIDORLARNI BOSHQARISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	187
Рахматова Ш.О.	РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ШАРОИТИДА БИЗНЕСНИНГ ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТИНИ БАҲОЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	196
Axmedova S.I.	RAQAMLI IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	203
Мирзарахимова А.Б.	СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИНИ РАҚАМЛАШТИРИШДА ЭЛЕКТРОН ТИББИЙ ЁЗУВЛАРНИНГ РОЛИ	209
Abdurakhmonov A.A.	O'ZBEKISTONDA RAQAMLASHTIRISH TENDENSIYALARI VA UNDAGI MAVJUD MUAMMOLAR	215
Abduraxmanova Z.T.	O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING O'RNI	223
Mustafakulov O'U.	STATISTIKA TIZIMIDAGI RAQAMLI PLATFORMALARNI BAHOLASH VA ULARNI TANLASH	232
Tal'atova D.B.	RAQAMLI TENGSIZLIKNI BARQARORLASHTIRISHNING IQTISODIY O'SISHDAGI O'RNI	238
Nabiyeva F.O.	RAQAMLI BANKING: QIYINCHILIKLAR, RIVOJLANAYOTGAN TEXNOLOGIYA TENDENSIYALARI VA KELAJAKDAGI TADQIQOTLAR	244
Yax'yayev O.Y.	"JUST IN TIME" XALQARO MENEJMENT MODEL, O'RGANILISHI, AMALIYOTI, RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI	254
Yuldashov I.S., Ro'ziev N.I.	RAHBARNING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARINI O'RGANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	260
Тўраева Н.О.	КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ	265
Muzaffarova D.M.	TASHKILOTNING FUNKSIONAL OPERATSIYALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH YO'LLARI	275

Rustamova M.M.	KOTLIN TILIDA YARATILGAN XIZMAT SIFATINI BAHOLOVCHI “SAFE MOBILE” ILOVASI	285
Zikirullaeva N.	THE ROLE OF GOVERNMENT POLICIES IN ATTRACTING DIRECT FOREIGN INVESTMENTS	294
Anvarova M.M.	RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONINING KICHIK VA O‘RTA BIZNES KORXONALARIGA ASOSIY TA‘SIRI	305
Parpieva R.A., Norboyeva N.E., Anvarova M.M.	IMPROVING MEDIA LITERACY USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN PROFESSIONAL EDUCATION	311

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ
DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ ЖУРНАЛ

Мазкур электрон илмий журнал Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 19 декабрдаги “Оммавий ахборот ва коммуникациялар соҳасида давлат хизматлари кўрсатишнинг айрим маъмурий регламентларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 1017-сонли қарорида белгиланган вазифалардан келиб чиқиб, Тошкент давлат иқтисодиёт университети томонидан 2021 йил март ойида таъсис этилган ҳамда халқаро интернет тармоғига жойлаштирилган.

This electronic scientific journal was established by the Tashkent State University of Economics in March 2021, based on the tasks defined in the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 19, 2019 No. 1017 «On approval of some administrative regulations for the provision of public services in the field of public information and communications» posted on the internet.

Нашр қилинаётган “Рақамли иқтисодиёт ва ахборот технологиялари” электрон, илмий журнали Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 31 январдаги 332/6-сон қарори билан Иқтисодиёт фанлари бўйича “Фан доктори” илмий даражасига талабгорларнинг диссертация ишлари, илмий натижалари юзасидан илмий мақолалар эълон қилиниши лозим бўлган Республика илмий журналлари рўйхатига киритилган.

The electronic scientific journal “Digital economy and information technologies” published by the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated January 31, 2023 No. 332/6 announces scientific articles on the scientific results of dissertations of candidates for the degree of Doctor of Science in «Economic Sciences» included in the list of republican scientific journals that should be published.

Журналнинг интернет ахборот тармоғидаги манзили:

<https://dgeconomy.tsue.uz/jurnal>

The address of the journal on the internet:

<https://dgeconomy.tsue.uz/jurnal>

TASHKILOTNING FUNKSIONAL OPERATSIYALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH YO‘LLARI

Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi

TDIU “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasida assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasidagi tashkilotlarining funksional operatsiyalarini raqamli transformatsiya qilish yo‘llarining o‘ziga xos jihatlarini tahlil qiladi. Tashkilotning funksional operatsiyalarini raqamli transformatsiya qilish yo‘llari bo‘yicha tahlil “Agile Methodology” si orqali amalga oshirildi. Ushbu maqola tashkilotlarni raqamli transformatsiya qilish yo‘llari borasida o‘z taklif va tavsiyalarini beradi. Tashkilotlar faoliyatini raqamli transformatsiya qilishda “DGS” platformasini yaratish taklifi berildi. Bu platforma orqali iqtidorli talabalarning barcha fanlar bo‘yicha qiziqish va iqtidorlarini rivojlantirish, iste‘dod qobiliyatlariga mos keladigan ko‘rik tanlovlarga yo‘naltirish hamda qiziqishlari, kuchli tomonlari, uslublari va afzalliklarini aniqlashda yangicha texnologiyani qo‘llash, iqtidorli talabalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni bir tizimda umumlashtirish va ularni kerakli yo‘lida harakatlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar beriladi. Bu ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududidagi Oliy ta‘lim muassasalari misolida raqamli transformatsiyaning o‘rni va ahamiyati va o‘ziga xos jihatlarini o‘rganildi.

Kalit so‘zlar. Tashkilot, funksional, operatsiya, Agile, metodologiya, raqamli, transformatsiya, OTM.

Kirish:

Raqamli texnologiyalarni amalda tatbiq etilishi jamiyat va iqtisodiyotni rivojlanishining muhim yo‘nalishlarini aniqlab beradi va odamlar hayotini tubdan o‘zgarishiga olib keladi. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish ko‘plab mamlakatlar, jumladan iqtisodiy lider – AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya uchun ham ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Sun‘iy intellekt, robotlashtirish, “Internet buyumlar” kabi texnologiyalarning yangi avlodini paydo bo‘lishi ijtimoiy soha va biznes faoliyatida transformatsiya qilishni yangi to‘lqinini boshlashni taqozo etmoqda. Mutaxassislar fikricha hududlarda, kompaniyalarda bunday texnologiyalarni joriy etilishi mehnat unumdorligini 40 foizga oshiradi. Microsoft kompaniyasi tomonidan berilgan ta‘rifga ko‘ra raqamli transformatsiyaning asosiy maqsadi raqobatbardoshlikni oshirish, doimo o‘zgarib turuvchi iqtisodiy sharoitda kompaniyaga o‘zini rivojlantirish uchun imkon berishdir. Raqamli transformatsiyaning an‘anaviy avtomatlashtirilgan tizimdan farqi samaradorlikning keskin oshishida hisoblanadi. Shuning uchun transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, odatda yangi biznes modellarni yaratilishiga olib keladi. Shuningdek, tashkilotlarda korporativ axborot tizimlarini joriy etilishi yoki modernizatsiya qilinishi bo‘yicha amalga oshirilgan har qanday loyihani ham raqamli transformatsiya deb bo‘lmaydi.

Tashkilotlarining funksional operatsiyalarini raqamli transformatsiya qilish yo‘llarining o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilishda hududlarning iqtisodiy o‘sishini hamda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni tizimli tahlil qilish, jahon iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlarini asosiy yo‘nalishlarini va sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasini batafsil o‘rganish talab etiladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning

“Raqamli iqtisodiyotga o‘tmasak, orqada qolib ketyapmiz. Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda «Raqamli O‘zbekiston – 2030» dasturini hayotga tadbiriq etishimiz zarur”¹⁰⁵ deya takidlab o‘tgan so‘zlari jamiyatimizdagi barcha korxonalar va tashkilotlarni raqamli transformatsiya qilish hamda uni to‘la va izchil joriy qilishdan dalolat beradi. Shu o‘rinda mamlakatimizda oliy ta‘lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta‘lim dargohlari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish, raqamli ta‘lim texnologiyalarini keng joriy etish asosida bilimlar transferini ta‘minlash masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish, oliy ta‘lim muassasalarining innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, ularning transformatsiyasini rivojlantirish” vazifalari belgilandi. Bu esa oliy ta‘lim muassasalari transformatsiyasining tashkiliy-pedagogik shartsharoitlarini yaratish va uning tashkiliy-boshqaruvi, pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni taqazo etadi. Davlatning raqamli strategiyasi va davlat boshqaruvining barcha darajalarida strategik rejalashtirishni qo‘llab-quvvatlash ushbu davlatning raqobatbardoshligi, uning ichki va tashqi harakatlarida samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda. Bular yuzasidan “2013-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi”,¹⁰⁶ “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”¹⁰⁷ hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030”¹⁰⁸ va “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”¹⁰⁹da milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Xususan, Taraqqiyot strategiyasida muhim sohalarni raqamlashtirilishga alohida e‘tibor qaratilib, davlat xizmatlari, sud tizimi, huquqni muhofaza qilish organlari, yo‘l harakati boshqaruvi tizimi, sog‘liqni saqlash tizimi, ijtimoiy xizmatlar, bank va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va milliy iqtisodiyotning boshqa asosiy sohalariga yangi texnologiyalarni joriy qilish belgilangan. Shu sababli ushbu maqola mavzusi dolzarb mavzulardan biri deb bemalol e‘tirof etishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili va usullar:

Tashkilotlarining funksional operatsiyalarini raqamli transformatsiya qilish yo‘llarining o‘ziga xos jihatlarni tahlil qilishda avvalo raqamli hamda transformatsiya va ular bilan bog‘liq jarayonlarga to‘xtalsak.

“Raqamlashtirish” atamasi birinchi bor 1971 yilda Shimoliy Amerika shahrida chop etilgan inshoda ishlatilgan. Brennan va Kreiss (2014)¹¹⁰, ta‘kidlashlaricha raqamlashtirish raqamli aloqa va media infratuzilmasi atrofida ijtimoiy hayotning ko‘plab turli sohalarini tashkil etish ekan. The Oxford English Dictionary¹¹¹, lug‘atida tashkilotlar, sanoat, mamlakatlar va boshqalarning raqamli yoki kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni qabul qilish yoki kengaytirish sifatida izohlaydi.

¹⁰⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 yil.

¹⁰⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori, 28.07.2016 yildagi 504-III-son.

¹⁰⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.02.2018 yildagi PF-5357-son.

¹⁰⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son.

¹⁰⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

¹¹⁰ Brennan, S.J.; Kreiss, D. Digitalization and digitization. In The International Encyclopedia of Communication Theory and Philosophy; Oxford, UK, 2016.

¹¹¹ Oxford English Dictionary.

Raqamlashtirish zamonaviy tashkilotlarni rivojlantirish uchun zarur jarayondir. Uning asosiy vazifasi katta ma'lumotlar to'plamlari bilan ishlashni soddalashtirish va tezlashtirish, korxonalar faoliyatini avtomatlashtirish, tashqi muhit bilan aloqa o'rnatish edi. Biroq, raqamlashtirishga asoslangan tashkilotning raqamli biznes modelini amalga oshirishda bir qancha katta to'siqlar mavjud. Bularga raqamlashtirish strategiyasining yo'qligi, xodimlarning ushbu sohadagi malakasining pastligi Shpak, N., Kyrylych, T., & Greblikaitė, J. (2016)¹¹², takidlashlaricha o'zgarishlardan qo'rqish, mablag' yetishmasligi, fikrlash darajasining pastligi va internet-mijozlarning ehtiyojlari hisoblanar ekan. Zamonaviy tashkilotlar hali raqamlashtirishning barcha yo'nalishlari va imkoniyatlaridan bir vaqtning o'zida foydalana olmaydi. Ko'pincha ular faqat individual texnologiyalardan foydalanadilar va natijada bunday holat korxonalar rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi va uning raqobatdosh ustunliklarini kamaytiradi. Iste'molchilar o'z vaqtlarini tobora ko'proq qadrlashadi, ya'ni ularga tezkor fikr-mulohazalar, shuningdek, yaxshi mo'ljallangan axborot resurslari, onlayn chatlar va individual yondashuv kerak. Mijozlarning xizmat ko'rsatish tezligi va sifatiga bo'lgan umidlari tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Mijozlarning yuqori ehtiyojlarini qondirish uchun kompaniyalar o'zlarining biznes jarayonlarini raqamlashtirishni, ya'ni tashkilot ishini raqamlashtirishni tezlashtirishlari kerak. Honorening¹¹³ fikriga ko'ra, "raqamlashtirish" tushunchasi biznesning dasturiy ta'minot IT yechimlari bilan optimallashtirish bo'lib, mijozlarga xizmat ko'rsatish va qoniqish nuqtai nazaridan uni sodda, tejamkor va yaxshiroq qiladi. Ushbu ta'rif va muammo bo'yicha adabiyotlarni ko'rib chiqish asosida elektron chipta xizmatlarini raqamlashtirishning raqamli texnologiyalardan foydalanishni o'zgartirish va takomillashtirish sifatida turli onlayn xizmatlar va media kanallari orqali elektron sayohat hujjatlarini hisobga olish kabi ishlab chiqilgan. Katz, Raul L., and Pantelis Koutroumpis (2013)¹¹⁴, Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash va ta'lim, moliya sektori va boshqa iqtisodiyot tarmoqlarining raqamli transformatsiyasidan so'ng hayot sifatining ijobiy o'zgarishlari kuzatilmogdaligini takidlab o'tishgan. Borovkov, A., Rozhdestvenskiy, O., Pavlova, E., Glazunov, A., & Savichev, K. (2021)¹¹⁵, uchta asosiy atamani ajratadi: avtomatlashtirish, raqamlashtirish va biznesning raqamli transformatsiyasi. Uning so'zlariga ko'ra:

1. Avtomatlashtirish - bu biznesda mavjud bo'lgan jarayonlarni kompyuter hisob-kitoblari, elektron saqlash va ma'lumotlar almashinuvi bazasiga o'tkazish.
2. Raqamlashtirish - bu kompaniya biznes-jarayonlarini raqamli iqtisodiyotning yangi vositalari va texnologiyalariga yaqinroq mos keladigan tarzda o'zgartirish.
3. Biznesning raqamli transformatsiyasi deganda raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan maksimal darajada samarali foydalanish maqsadida butun biznes modeli: strategiya, jarayonlar, tashkiliy tuzilma, moliya, savdo va logistika o'zgarishi tushunilishi kerak.

Tarasovning¹¹⁶ ta'kidlashicha, raqamli transformatsiya, birinchi navbatda, yangi biznes jarayonlari, tashkiliy tuzilmalar, qoidalar, ma'lumotlar uchun yangi mas'uliyat, yangi modellar. Uning fikricha, raqamli transformatsiyaning asosiy jarayoni strategik ma'lumotlarni

¹¹² Shpak, N.; Kyrylych, T.; Greblikaitė, J. Diversification models of sales activity for steady development of an enterprise. *Sustainability* 2016, 8, 393

¹¹³ Honore, T. Диджитализация—не мода, а способ развития бизнеса

¹¹⁴ Katz, R.L.; Koutroumpis, P. Measuring digitization: A growth and welfare multiplier. *Technovation* 2013, 33, 314–319.

¹¹⁵ Borovkov, A., Rozhdestvenskiy, O., Pavlova, E., Glazunov, A., & Savichev, K. (2021). Key Barriers of Digital Transformation of the High-Technology Manufacturing: An Evaluation Method. *Sustainability*, 13(20), 11153

¹¹⁶ Tarasov, I. V. (2019). Approaches to developing a strategic program of company's digital transformation. *Strategic decisions and risk management*, 10(2), 182-190

boshqarishdir. T.Serixning fikricha, raqamlashtirish - bu ilg'or tahliliy, sun'iy intellekt, mobil va taqiladigan qurilmalar, robotlashtirish va integratsiya texnologik platformalaridan foydalanish asosida shaxsni almashtirish yoki to'ldirish yo'li bilan operatsion jarayonlar va biznes modellarini o'zgartiruvchi ilg'or texnologiyalardan foydalanishdir. Xuddi shu muallifning fikricha, raqamlashtirish biznesni doimiy takomillashtirish va o'zgartirish jarayonini yangi yutuq yechimlarni izlash, sinovdan o'tkazish va joriy etish orqali o'z ichiga oladi. Capgemini Consulting tomonidan MIT Sloan Management bilan hamkorlikda nashr etilgan nashrda Vesterman va boshqalar. (2011) raqamli transformatsiyani "korxonalar samaradorligini yoki imkoniyatlarini tubdan oshirish uchun texnologiyadan foydalanish" deb ta'riflagan.

Raqamlashtirish va raqamli transformatsiya bilan bog'liq muammolar ko'plab ishlarda yoritilgan. Ular turli jihatlariga e'tibor qaratiladi va mavzuni turli nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Xususan, mazkur masalaning ayrim jihatlari respublikamizning qator yirik olimlari, shular jumlasidan Sharipov K.A, Yuldashev M.A, Abdullayev A. I, Sattarov T.S, Miraliyeva D.T, Shofiddinova Z. I, Fayzullayeva N.S, Lutfullayeva N.X., Mirzaaxmedova N.A., Musaxanova G.M.¹¹⁷ ishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. O'zbekistondagi izlanuvchi tadqiqotchi olim V. Sadiyev¹¹⁸, ning dissertatsiya ishida Oliy ta'lim muassasasi transformatsiyasini oliy ta'lim muassasasi faoliyatidagi u yoki bu ko'rinishdagi lokal o'zgarishlardan farqli ravishda, uning missiyasi, jamiyat va davlat oldidagi vazifalari, faoliyatini tashkil etish shakllari va texnologiyalarining qaytadan tashkil topishi deb aytadi.

Muhokama:

Raqamli transformatsiya bugungi jadal rivojlanayotgan biznes landshaftida raqobatbardosh bo'lishni istagan kompaniyalar uchun juda muhimdir. Bu tashkilotlarga jarayonlarni soddalashtirish, mijozlar tajribasini yaxshilash, strategik maqsadlariga erishishda yordam beradi hamda tashkilotning barcha sohalariga integratsiyalashuvini anglatadi. Funktsional operatsiyalar haqida gap ketganda, raqamli transformatsiya jarayonlarni soddalashtirishi, samaradorlikni oshirishi va mijozlar tajribasini yaxshilashi mumkin.

Raqamli transformatsiya tarmoqlar bo'ylab qiymat yaratish uchun kalit bo'lib, uning innovatsion salohiyati ko'plab zamonaviy biznes strategiyalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Statista ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda raqamli transformatsiyalar bo'yicha global xarajatlar 1,8 trillion AQSh dollariga yetishi va 2025-yilga borib 2,8 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. DX tomon strategik siljishsiz, tashkilotlar ortda qoladilar, chunki ularning raqobatchilari oldinga siljiydilar va uning ko'plab ilovalaridan foydalanadilar.

Yangi raqamli texnologiya biznes transformatsiyasini keltirib chiqarmoqda va sanoat rahbarlari ushbu texnologiyalardan birinchi raqamli yondashuvning bir qismi sifatida foydalanish raqamli transformatsiya tendentsiyalarini kuzatishni anglatishini tushunishadi.

¹¹⁷ TDIU, "Innovatsion ta'lim" kafedresi, "Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'limning transformatsiyasi" respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma'ruza tezislari to'plami, 2022 yil 18 noyabr.

¹¹⁸ Sadiyev Valijon Aljonovich (2022) "Oliy ta'lim muassasasi transformatsiyasining tashkiliy-pedagogik sharoitlarini yaratish" dissertatsiyasi.



1-rasm. Raqamli transformatsiyani amalga oshirish bosqichlari

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida yig'ilgan ma'lumotlarni Agile metodologiyasi yordamida tahlil qilamiz. Agile – dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda tezkor usul bo'lib, dasturiy ta'minotni ishlab chiqishga ketma-ket yondashuvlar, ketma-ket ishlab chiqishni qo'llash, talablarni dinamik shakllantirish va ularning bajarilishini ta'minlash, o'z-o'zini tashkil etuvchi har xil soha mutaxassislaridan iborat guruhlar tarkibida doimiy o'zaro ta'sir o'tkazishdan iborat.

Tashkilotdagi funktsional operatsiyalarni raqamli o'zgartirish uchun Agile metodologiyasini qo'llash bo'yicha ba'zi qadamlar:

- Tashkilot ichida o'zgartirilishi kerak bo'lgan aniq sohalarni aniqlash. Bu har qanday funktsional soha bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga olishi mumkin.

- Transformatsiya jarayoni uchun mas'ul bo'lgan turli bo'limlardan odamlar jamoasini tuzish. Bu jamoa turli ko'nikmalar va tajribaga ega bo'lgan a'zolarini o'z ichiga olishi kerak.

- Transformatsiya loyihasining ko'lamini aniq belgilash. Bunga loyihaning maqsadlari, vazifalari va natijalarini aniqlash kiradi.

- Talablarni ustuvorlashtirish va tashkilot uchun eng muhim bo'lgan xususiyatlar va funktsionallikni aniqlash uchun manfaatdor tomonlar bilan ishlash lozim.

- Loyihani kichikroq, boshqariladigan bo'laklarga yoki sprintlarga bo'ling. Bu jamoaga ishlaydigan dasturiy ta'minot yoki jarayonlarni tez va samarali yetkazib berishga e'tibor qaratish imkonini beradi.

- Guruh a'zolarining, jumladan mahsulot egasi, scrum ustasi va ishlab chiqish guruhining roli va mas'uliyatini belgilash lozim.

- Jamoa diqqatini jamlash va hamma bir xil maqsadlar sari harakat qilishiga ishonch hosil qilish uchun kundalik stand-up uchrashuvlari, sprint rejalashtirish, sprint sharhlari va retrospektivlar kabi Agile tadbirlaridan foydalanish kerak.


- Har bir sprint natijalarini doimiy ravishda baholash va kelajakdagi sprintlarni yaxshilash uchun ma'lumotlardan foydalanish. Bu manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini yig'ish, o'zgarishlarning ta'sirini o'lchash va kerak bo'lganda tuzatishlarni o'z ichiga oladi.

Funktsional operatsiyalarni raqamli o'zgartirish uchun Agile metodologiyasini qo'llash orqali siz tashkilotning o'zgaruvchan biznes muhiti va mijozlar ehtiyojlariga tez va samarali moslasha olishiga ishonch hosil qilishingiz mumkin.

Natijalar:

Raqamli transformatsiya jarayonlarini tahlil qilishda texnologiyani oliy ta'lim muassasasining funktsional operatsiyalariga qanday integratsiya qilish mumkinligini tushunish muhimdir. Bu qabul qilish, ro'yxatga olish va akademik maslahat berishdan tortib, kursni topshirish, baholash va bitiruvgacha bolgan hamma narsani o'z ichiga oladi. Raqamli transformatsiyaning asosiy jihatlaridan biri bu turli jarayonlarni yaxlit va foydalanuvchilarga

qulay tizimga birlashtira oladigan yagona interaktiv platformani ishlab chiqishdir. Oliy ta'lim muassasasi uchun yagona interaktiv platformaning kontseptual modelini ishlab chiqish uchun barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari va umidlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Talabalar uchun bu ularning jadvallarini, baholarini va real vaqt rejimida bitiruv jarayonini ko'rish imkonini beruvchi mobil qulay interfeysni o'z ichiga olishi mumkin. O'qituvchilar va maslahatchilar uchun u talabalar taraqqiyotini kuzatish va talabalar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan muloqot qilish vositalarini o'z ichiga olishi mumkin. OTM da bunday raqamli transformatsiya ishlari amalga oshirilgan. Bunga misol tariqasida dars jadvallarini tuzishda avtomatlashtirilgan tizimdan foydalanish, talabalarning fan bazalari, o'quv jarayonining qay tarzda amalga oshirilayotgan, dars mashg'ulotlari baholari, davomatining olib borilishi bir so'z bilan HEMIS tizimining ishga tushganini aytish mumkin. Bunday platforma talabalar, professor-o'qituvchilar va xodimlar uchun shaxsiylashtirilgan boshqaruv paneli, real vaqt rejimida aloqa va qayta aloqa vositalari, avtomatlashtirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va hisobot berish kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiyani qo'llash ish uslubini o'zgartirishga olib keladi, hamda innovatsiyalar, samaradorlik va talabalarni jalb qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratada. Oliy ta'lim muassasasida funktsional operatsiyalarni muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya qilishning kaliti platformani loyihalash, ishlab chiqish va amalga oshirishda barcha manfaatdor tomonlarni jalb qilgan holda, unga yaxlit va hamkorlikda yondashishdir. Zero, O'zbekistonning taraqqiyoti raqamli texnologiyalarning barcha soha va tarmoqlarga joriy etilishi va qo'llanishiga uzviy bog'liqdir.



2-rasm. Oliy ta'lim tashkilotlari soni.

Yuqoridagi tadqiqotning tahlil natijalariga ko'ra Oliy ta'lim muassasalarining soni 2000-2001 – yillarda 61 tani tashkil etgan. Shu jumladan talabalar soni 183,5 mingni, 10 000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni 74 tani, oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar, 44,7 ming kishini, oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan mutaxassislar, 31.6 ming kishini tashkil etgan. Bu ko'rsatgich 2009-2010 yillarga kelib 66 ta oliy ta'lim tashkilotini tashkil etgan. Shu jumladan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari 6 ta, talabalar soni 286,2 mingni, 10 000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni 103 tani, oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar, 60,7 ming kishini, oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan mutaxassislar, 71.8 ming kishini tashkil etgan. Bu ko'rsatgich 2018-2019 yillarga kelib yuqoriga ko'tarilgan. 98 ta oliy ta'lim tashkilotini

tashkil etgan. Shu jumladan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari 10 ta, talabalar soni 360,2 mingni, 10 000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni 110 tani, oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar, 114,5 ming kishini, oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan mutaxassislar, 70.3 ming kishini tashkil etgan. Hozirgi kunda bu ko'rsatkich keskin ko'tarilgan 191 ta oliy ta'lim tashkilotini tashkil etgan. Shu jumladan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari 26 ta, talabalar soni 1042,1 mingni, 10 000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni 289 tani, oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar, 282,4 ming kishini, oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan mutaxassislar, 102.4 ming kishini tashkil etgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarda kelib chiqib shuni takidlash mumkinki, OTM larida raqamli interaktiv platformalarning amalyotga tadbiiq etilishi natijasida oliy ta'lim tashkilotlari yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib kelmoqda. Shu bilan birgalikda dasturiy ta'minotni ishlab chiqishga bo'lgan talabning ham oshishiga olib keladi.

Jadval

Dasturiy ta'minotga qilingan xarajatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi

Ko'rsatkichlar	2022
Yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi (foizda)	0,18
Kompyuter dastur ta'minotiga xarajatlari (mlrd so'm)	1636,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2022-yil davomida Dasturiy ta'minotga qilingan xarajatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 0.18% tashkil etmoqda. Kompyuter dastur ta'minotiga bo'lgan xarajatlarini esa 1.636,6 mlrd so'mni tashkil etmoqda.

Tashkilotlarining funksional operatsiyalarini raqamli transformatsiya qilish yo'llarining o'ziga xos jihatlarni tahlil qilishda O'zbekistondagi Oliy ta'lim muassasalaridagi iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limining ishlash funksiyasini o'rganilib, tahlil qilindi va quyidagi natijalarga erishildi:


- Universitetda ta'lim olayotgan iqtidorli talabalarning intellektual salohiyatini muntazam ravishda aniqlab borishi,
- Fundamental ilmiy-tadqiqot ishlariga, ilmiy to'garaklarga va mualliflik jamoalariga jalb qilishni uyushtirish,
- Iqtidorli talabalarni ilmiy maqolalarini chop etishga, hamda ularning ilmiy ishlari va ilmiy ishlanmalarini amaliyotga joriy etishda ko'maklashish,
- Iqtidorli talabalarni Respublika va xalqaro miqyosda o'tkaziladigan ilmiy anjumanlarda ishtirok etishini ta'minlash,
- Xorijiy davlatlarga o'qishga va stajirovkaga yuborishni tashkil etish,
- Iqtidorli talabalar safidan O'zbekiston Respublikasi davlat stipendiyalariga nomzodlarni maxsus tayyorlashlarini kuzatdik.

Universitetda iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'yicha DGS raqamli transformatsiya modeli barcha foydalanuvchilarning ehtiyojlari va umidlariga javob berishini taminlashga yordam beradi va butun muassasa uchun eng katta qiymatni beradi.

Hozirgi kunda O'zbekistondagi OTM larda iqtidorli talabalar bilan ishlash sifatli tashkil etib kelinmoqda. Bu jarayonni yanada yuksaltirish, sifatini yana ham oshirish, bu tizimga

yangicha texnologiyalar orqali yondashish hamda bu tizimga raqamli transformatsiyani qo'llashga ehtiyoj tug'dirmoqda. Raqamli transformatsiya universitetlarda iqtidorli talabalarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish jarayonlarini soddalashtirishi mumkin. To'g'ri va aniq texnologik vositalar yordamida iqtidorli o'quvchilar o'zlarining noyob iste'dod va qobiliyatlaridan maksimal darajada foydalanib, shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasi, global hamkorlik va raqamli murabbiylikdan foydalanishlari mumkin.

Shuni takidlab o'tish joizki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning strategik maqsadlarini inobatga olgan holda, iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonlariga raqamli transformatsiyani joriy qilish hamda xalqaro standartlarga mos ravishda amalga oshirish uchun rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning amaldagi tajribalarini chuqur o'rgangan holda "DGS"(Digital Gifted Students) platformasining yagona tizimini joriy etsak, OTM larning reytingi ko'tarilishi keyinchalik TOP 1000 talikka kirishi va bir qator muammolarni yechimini bartaraf qilishga xizmat qiladi.



3-rasm. "DGS" platformasining modeli.

Umuman olganda, har bir iqtidorli talabaning o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatiga mos keladigan shaxsiy yondashuvni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni takidlash mumkinki, bu maqola tadqiqotchilarga mavzuga oid yangiliklarni tizimli ravishda taqdim etish orqali mavzuni tushunishda katta yordam beradi. Nafaqat nazariy va adabiy tushuntirishlar, balki empirik va amaliy tahlillar, taklif va tavsiyalar,

xulosalar bilan ham soha va ilm-fan rivojiga hissa qo'shish choralari ko'rdik. Kelajakda bizning ilmiy maqolalarimiz boshqa ilmiy fanlar tomonidan topilmalarning haqiqatligi, umumlashtirilishi va ahamiyatini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, biz boshqa tadqiqotlar mavzuni tahlil qilishning turli usullaridan foydalanishni taklif qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston —2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-son Qarori

3. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-578-son 01.11.2019. <https://www.lex.uz>.

4. "2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. <https://lex.uz/docs/4751561>.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi qarori loyihasi. <https://regulation.gov.uz/uz/document/9413>.

6. Keivani, F. S., Jouzbarkand, M., Khodadadi, M., & Sourkouhz, Z. K. (2012). A General View on the E-banking. *International Proceedings of Economics Development & Research*, 43, 62.

7. Hu, X., Li, W., Hu, Q. (2008). Are mobile payment and banking the killer apps for mobile commerce?. In *Proceedings of the 41st Annual Hawaii International Conference on System Sciences*; 84-84. IEEE.

8. Bátiz-Lazo, B., & Wood, D. (2002). An historical appraisal of information technology in commercial banking. *Electronic Markets*, 12(3), 192-205.

9. Liao, Z., Cheung, M. T. (2002). Internet-based e-banking and consumer attitudes: an empirical study. *Information & Management*, 39(4), 283-295.

10. Graupner, E., Melcher, F., Demers, D., & Maedche, A. (2015). Customers' intention to use digital services in retail banking—an information processing perspective.

11. Brennen, S.J.; Kreiss, D. Digitalization and digitization. In *The International Encyclopedia of Communication Theory and Philosophy*; Jensen, K.B., Craig, R.T., Pooley, J.D., Rothenbuhler, E.W., Eds.; Wiley-Blackwell: Oxford, UK, 2016. [Google Scholar] [CrossRef]

12. Oxford English Dictionary. Oxford English Dictionary (OED) Home Page. Available online: <http://www.oed.com/> (accessed on 13 February 2020).

13. Shpak, N.; Kyrylych, T.; Greblikaite, J. Diversification models of sales activity for steady development of an enterprise. *Sustainability* 2016, 8, 393. [Google Scholar] [CrossRef] [Green Version]

14. Honore, T. Диджитализация—не мода, а способ развития бизнеса [Digitalization Is not a Fashion, but a Way of Business Development]. 2017. Available online: <https://www.columbusglobal.com/ru/blog/didzhitalizaciya-sposob-razvitiya-biznesa>. (accessed

on 13 February 2020).

15. Katz, R.L.; Koutroumpis, P. Measuring digitization: A growth and welfare multiplier. *Technovation* 2013, 33, 314–319. [[Google Scholar](#)] [[CrossRef](#)]

16. Borovkov, A., Rozhdestvenskiy, O., Pavlova, E., Glazunov, A., & Savichev, K. (2021). Key Barriers of Digital Transformation of the High-Technology Manufacturing: An Evaluation Method. *Sustainability*, 13(20), 11153. [[Google Scholar](#)]

17. Tarasov, I. V. (2019). Approaches to developing a strategic program of company's digital transformation. *Strategic decisions and risk management*, 10(2), 182-190. [[Google Scholar](#)]

18. TDIU, "Innovatsion ta'lim" kafedrası, "raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'limning transformatsiyasi" respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma'ruza tezislari to'plami, 2022 yil 18 noyabr.

19. Садиев В.А. (2022) "Олий таълим муассасаси трансформациясининг ташкилий-педагогик шароитларини яратиш" диссертацияси.



РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ
DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Электрон илимий журнал | Electronic scientific journal

Muharrirlar:
Yaxshiyev H.T.
Matxo'jayev A.O.

Musahhih:
Matxo'jayev A.O.

Tehnik muharrir:
Mirzayev J.O'.

Litsenziya AI № 2537 08.02.2022 y. Bosishga ruxsat etildi 19.10.2023.
Qog'oz bichimi 60x84 ¹/₈. Shartli bosma tabog'i 19,9. Raqamli bosma.
Adadi 50 nusxa. №16/10-2023 - sonli buyurtma.

“Zarafshon Foto” MCHJning matbaa bo'limida chop etildi.
100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shahriobod ko'chasi, 3-uy.

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS" 19-20 OCTOBER

1st DIRECTION: TRENDS AND PROSPECTIVE DIRECTIONS OF GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT.

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS"

19-20 OCTOBER 2023

TASHKENT STATE

UNIVERSITY OF ECONOMICS,

TASHKENT, UZBEKISTAN

ICFENDS and ICDSIS"

"NEW2AN,

Parallel conferences

CONFERENCE "IFRS" ФОРУМ

DEVELOPMENT STRATEGY:

GLOBAL ECONOMIC TRENDS

"IFRS"

НОМЛИ

КОНФЕРЕНЦИЯ

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS"

TASHKENT STATE

UNIVERSITY OF ECONOMICS

ЎНАЛИШ: ГЛОБАЛ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛИ ЎНАЛИШЛАРИ. "Глобал ва миллий иқтисодиёт трендлари" номли конференция

PARALLEL CONFERENCES

"NEW2AN, ICFENDS

AND ICDSIS"



- Conditions for improvement
- Corporate Account
- Institutional problems
- Training personnel for
- Business environment
- Digital technologies in

CONFERENCE

"S" CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS" 19-20 OCTOBER



+998 71 239-28-94 <http://dgeconomy.tsue.uz/>

dgeconomy_tdiu@mail.ru, dgeconomy@tsue.uz

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.

ФОРУМ

- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agricultural Development

- Digit
- Gree
- Envir
- Alter
- Artif
- digit